



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

No8
MAXSUS SON

Google
Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

Road

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref

BAKALAVR TALABALARINIG MAQOLALARI TO'PLAMI



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Elektron nashr. 323 sahifa.

2025-yil dekabr

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoira Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Viktorovna, Candidate of Economic Sciences (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 28-fevraldagi
333/5-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

MEHMONXONA KORXONALARIDA INNOVATSION LOYIHALARNI AMALGA OSHIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	10
Erkaboyeva Jasmina Safarali qizi, Ochilova Hilola Farmonovna	
FAULT TOLERANCE AND SELF-HEALING IN IOT-ENHANCED P2P SYSTEMS	15
Ibrokhimkhuja Rikhsikhujayev, Mohit Bhandwal	
BIZNES BOSHQARUVIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	22
Ikromov Boisxon Bahodir o'g'li, Ozodbek Musayev	
BIOLOGIYA FANINI O'QITISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA VIRTUAL LABARATORIYADAN FOYDALANISHNING SAMARADORLIGI.....	27
Turayeva Sabrina Kamoliddin qizi, Qodirov Farrux Ergash o'g'li	
YASHIL LOGISTIKA VA TRANSMILLIY KORPORATSIYALAR.....	32
Rafiqov Abror Baxtiyor o'g'li, Narzullayev Elmurod Shuxrat o'g'li	
OMBORXONALARNI BOSHQARISHDA RFID TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISHNI AFZALLIKLARI	36
Mirkamolov Mirsardor Mirxamdami o'g'li, Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich	
STARTAPLAR VA KICHIK BIZNESNING IQTISODIY O'SISH VA RIVOJLANISH JARAYONLARIDAGI ROLI	41
Abdumajidova Muxlisa Alisher qizi, Umarova Mukaddas Abbasovna	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY SUG'URTA TIZIMIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI XORIJ TAJRIBASI ASOSIDA QO'LLASH ISTIQBOLLARI	46
Sobirova Ozoda Rustamovna, Safarov Javohir Ismoilovich	
IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDA MILLIY TO'LOV TIZIMLARINING ELEKTRON TIJORATDAGI AHAMIYATI.....	50
Teshayev Sayimbek Anvarovich, Tashmuxeamedova Yayra Atxamovna	
CHANGES IN PULSE RATE IN BLOOD VESSELS DURING PHYSICAL EXERCISE	56
Pirnazarov Elchin Anvar o'g'li, Yoldasheva Roila Jumaevna	
JAHON IQTISODIYOTIDA GLOBAL XAVFSIZLIK VA IQTISODIY BARQARORLIK	61
Qayumov Sobit Obid o'g'li, Xasanov Nodir Erkinovich	
LABOR RESOURCES – THE MAIN FACTOR OF NATIONAL DEVELOPMENT.....	68
Qurbanov Tolmasjon Namoz ugli, Mustafayev Golib Sultonmurodovich	
ISTE'MOLCHI TANLOVI VA NAFLILIK NAZARIYASINI ILMIY ASOSLARI.....	75
Q.Abdukarimov, M.Keldibekova, F.Umarov	
KORXONALARDA RAQAMLI MARKETINGDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH	80
Tumaris Nietullaeva, Alimxodjayeva Nargiza Elshodovna	
OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING INSON VA JAMIYAT HAYOTIDAGI TA'SIRI HAMDA AXBOROT XURUJLARI.....	87
Kodirov Ozodbek, F.Umarov	
QURILISH MATERIALLARI SANOATIGA KIRITILAYOTGAN INVESTITSIYALAR TAHLILI VA TARMOQNING MAMLAKAT EKSPORTIDAGI O'RNI.....	93
G'ulomiddinov Bobobek Sardorjon o'g'li, G'ulamov Ilhom Akramovich	
BIZNESNI BOSHQARISHDA ERP TIZIMIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI	98
Abduhamidova Shodiyaxon Abdushukur qizi, Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich	
O'ZBEKISTON VA AFG'ONISTON HAMKORLIK MUNOSABATLARINING YANGI BOSQICHI	103
Fayzullayev Aminjon, F.Umarov	
O'ZBEKISTONDA HUDUDLAR IQTISODIY RIVOJLANISHIDAGI TAFOVUTLAR	110
Najmiddinova Malikabonu Asrorovna, F.Umarov	
TO'QIMACHILIK SANOATIDA CHARM-POYABZAL TARMOG'INING RIVOJLANISH YO'NALISHLARI XUSUSIDA	117
Mahmudov Orifbek Abdumomin o'g'li, Azmiova Feruza Payziyevna	



O'ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING TARKIBIY RIVOJLANISHI VA UNING IQTISODIY SAMARADORLIKKA TA'SIRI	122
Xayrullayev Javohir Sheraliyevich, Maqsudov Bunyodjon Abdusamat o'g'li	
MINTAQALARNI IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANISHINI TARTIBGA SOLISH VA XALQARO TAJRIBA.....	128
Xudoyberdiyev Feruzbek, F.Umarov	
MINTAQALAR IQTISODIYOTINING RIVOJLANISH HOLATINI BAHOLASH: TAHLIL VA USTUVOR YO'NALISHLAR.....	135
Yarashev Mirkomil, F.Umarov	
OROL DENGIZI INQIROZI OQIBATIDA YER DEGRADATSIYASI VA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH IMKONIYATLARI: QORAQALPOG'ISTON MISOLIDA (NDVI VA NDMI TAHLILI ASOSIDA)	141
Nurmatova Shahzoda, Oralbaev Bakhitjan Orintaevich, Ruziyeva Iroda Davutovna, Turotova Nigora Xolmurod qizi	
MINTAQADA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI	147
Abubakirova Xonzoda, F.U.Umarov	
ИНФОРМАЦИОННАЯ БЕЗОПАСНОСТЬ И МОЛОДЁЖЬ: ПРОБЛЕМЫ ДУХОВНОГО ИММУНИТЕТА В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ	154
Абдуллаев Бехзод Баходир угли, Байбобоева Фируза Набижоновна	
SUN'IY INTELLEKT NAZARIYASI VA AMALIYOTI: TAJRIBALAR, MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR	158
Hamroyeva Dilnura G'ayrat qizi, To'qmirzayev Kamol Mo'min o'g'li	
QISHLOQ HUDUDLARIDA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHDA XALQARO TASHKILOTLARNING (FAO, UNDP, IFAD) LOYIHALARI TAJRIBASI	162
Z.B.Negmatullayeva, O.Q.Xudayberdiyeva	
O'ZBEKISTON RAQAMLI IQTISODIYOTI VA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING IQTISODIY O'SISH STRATEGIYASIDAGI O'RNI.....	168
Bo'riyev Behruzbek Bahodir o'g'li, Elov Dilshod Abdujabborovich	
«ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ КЛИЕНТСКОГО ОПЫТА В БАНКАХ: ИНТЕГРАЦИЯ ОМНИКАНАЛЬНЫХ СТРАТЕГИЙ И СОВРЕМЕННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ»	173
Каримов Диёрбек Дилшод ўгли, Уснатдинов Миратдин Саламатдинович, Юлдашев Жамшид Аббарович	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA INFLYATSIYANING ASOSIY OMILLARI VA ULARNI KAMAYTIRISH STRATEGIYALARI.....	182
Bazarbaeva Dildora Ekramjon qizi, Koshanov Abdimurat Azat uli	
ОСОБЕННОСТИ МАКРОЭКОНОМИЧЕСКОЙ СТАБИЛЬНОСТИ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	188
Хайруллаев Хожиакбар, Ишонкулова Феруза Асатовна	
QISHLOQ XO'JALIGIDA YASHIL TEXNOLOGIYALARNING QO'LLANILISHI.....	193
Sharipboyev Hasanboy Marks o'g'li, Olimov Maqsudjon Komiljon o'g'li	
HALOL MEHMONXONALARNI TASHKIL ETISHNING AHAMIYATI.....	198
Farxodov Zafar Qaxramon o'g'li, Shaymanova Nigora Yusupovna	
TIJORAT BANKLARINING BARQARORLIGINING MAMLAKAT IQTISODIYOTIDAGI O'RNI.....	203
To'rayeva O'g'iloy G'iyosovna, Dilmurodov Jurabek Ulug'bek o'g'li, Mirzayev Mirza Abdullayevich	
ФАКТОРЫ И ПРОБЛЕМЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ УСТОЙЧИВОСТИ ИНВЕСТИЦИОННЫХ ПОТОКОВ В УЗБЕКИСТАНЕ	208
Мисс София Ёдмыанг, Рахматова Наргизахон Аъзамхоновна	
ОСОБЕННОСТИ МАКРОЭКОНОМИЧЕСКОЙ СТАБИЛЬНОСТИ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	214
Хайруллаев Хожиакбар, Ишонкулова Феруза Асатовна	



ВЗАИМОСВЯЗЬ МЕЖДУ СБЕРЕЖЕНИЯМИ И ИНВЕСТИЦИЯМИ В УСЛОВИЯХ ФОРМИРУЮЩЕЙСЯ РЫНОЧНОЙ ЭКОНОМИКИ: АНАЛИЗ НА ПРИМЕРЕ УЗБЕКИСТАНА.....	220
Абдумажидов Шохжохон Шухратович, Нозимов Эльдор Анварович	
ОСОБЕННОСТИ ВНЕДРЕНИЯ “ЗЕЛЁНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ” В БАНКОВСКУЮ СФЕРУ	226
Тохинова Азиза Олимжоновна, Ишонкулова Феруза Асатовна	
MOLIYAVIY HISOBOTLAR ISHONCHLILIGINI SHAKLLANTIRISHDA BUXGALTERIYA HISOB MEKANIZMLARINING AHAMIYATI	231
Jo'rayeva Risolat Shuxrat qizi, Mardonov Shaxriyor Xolmirzo o'g'li	
РАЗРАБОТКА ДОЛГОСРОЧНЫХ МАРКЕТИНГОВЫХ СТРАТЕГИЙ НА ОСНОВЕ ПОВЕДЕНЧЕСКИХ АСПЕКТОВ ПОТРЕБИТЕЛЕЙ	235
Юлдошев Бобур Бахромович, Маратова Гульшад Женгисовна, Саъдий Шукрилло Асатилло угли	
IQTISODIYOTNI LIBERALLASHTIRISH SHAROITIDA KORXONALARDA EKSPORT-IMPORT OPERATSIYALARI HISOB	246
Oltmishov Doniyor, Ermaxammadov Ro'zimurod, Qo'shbekova Shahnoza, Misirov Asliddin Mamasobirovich	
TASHQI IQTISODIY FAOLIYAT BO'YICHA HISOBLASHUV MUOMALALARI HISOBINI TASHKIL ETISHNING ME'YORIY HUQUQIY ASOSLARI	249
Uralova Gavhar, Ibodova Madina, Alimov Abbos, Misirov Asliddin Mamasobirovich	
MOLIYAVIY SIYOSATNING MILLIY IQTISODIYOTNING BARQARORLIGIGA TA'SIRI ВЛИЯНИЕ ФИНАНСОВОЙ ПОЛИТИКИ НА СТАБИЛЬНОСТЬ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ THE IMPACT OF FINANCIAL POLICY ON THE STABILITY OF THE NATIONAL ECONOMY.....	253
Ismatilloev Muhridin Asliddin o'g'li, Rejapov Xayrillo Xikmatullayevich	
YASHIL TEXNOLOGIYALAR BOZORIDA AI ASOSIDAGI INNOVATSIYALARNING INVESTITSION OQIMLARGA TA'SIRI	259
Istamov Bekzodbek Bahriddinovich, Buranova Jazira Ergash kizi	
EKSPORT VA IMPORT OPERATSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH: TAHLIL VA AUDIT	264
Urinboyev Bexruz Zoir o'g'li, Misirov Asliddin Mamasobirovich	
INVESTITSIYALARNI JALB QILISH ORQALI QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARIDA INNOVATSIYALARNI JORIY ETISHNING ISTIQBOLLARI	269
Ismoilov Zikro Saidolimovich, G'ulamov Ilhom Akramovich	
KEY DETERMINANTS OF THE BUSINESS ENVIRONMENT AND DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN: THEORETICAL AND EMPIRICAL ANALYSIS	275
Axmadjonov Kamronjon A'zamjon o'g'li, Dilafruz Maxkamova Nurmuhhammad qizi	
ИННОВАЦИОННО-ИНВЕСТИЦИОННЫЙ ПОТЕНЦИАЛ В СИСТЕМЕ ФАКТОРОВ УСТОЙЧИВОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА.....	280
Давронов Дониёрбек Заррухович, Камилова Наргиза Абдукажоровна	
YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH SHAROITIDA BANK TIZIMI	285
Toshtemirova Feruza Nabijonovna, Murodullayev Muhammad Mavlon o'g'li, Ishonkulova Feruza Asatovna	
«ПРИМЕНЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ РЕСУРСОСБЕРЕГАЮЩИХ ТЕХНОЛОГИЙ В СЕЛЬСКОМ И ВОДНОМ ХОЗЯЙСТВЕ: ПЕРСПЕКТИВЫ ВНЕДРЕНИЯ ИННОВАЦИОННОЙ ТЕХНИКИ И ТЕХНОЛОГИЙ ДИСТАНЦИОННОГО УПРАВЛЕНИЯ НА ОБЪЕКТАХ СЕЛЬСКОГО И ВОДНОГО ХОЗЯЙСТВА».....	288
Ходжамуродова Севинч Нуриддиновна, Джораяева Лола Абдугабборовна	
EFFECTIVE ORGANIZATION OF THE MOVEMENT OF GOODS IN MARKETING BASED ON FOREIGN EXPERIENCE	292
Karimova Shahzoda Voxid qizi, Egamberdiyev Shoxijahon Tolipovich, Aliqulov Shoxijahon Sherati o'g'li, Pardayev Sherzod Xolmurodovich	



COMPARATIVE MACROECONOMIC ANALYSIS OF INFLATION IN UZBEKISTAN AND THE UNITED STATES.....	298
Khayirbaeva Balzira Parakhat qizi, Sarsenbaev Bakhitjan Abdulgazievich	
SHOVOT TUMANI TURIZM SALOHİYATIDA JOYLASHTIRISH INFRATUZILMASINING O'RNI	305
Ollayorov Islombek Farhod o'g'li, Isakov Rasulbek Qo'chqarboy o'g'li	
UNDERSTANDING POVERTY IN UZBEKISTAN: REGIONAL DIFFERENCES AND ECONOMIC FACTORS	310
Joziba Abdullayeva, Ulugbek Narmanov	
XALQARO TA'LIM STANDARTLARI VA ULARNING O'ZBEKISTON TA'LIM TIZIMIDA AMALIY AHAMIYATI	317
Zayniddinov Suxrob Lutfulla o'g'li, Sharipov Alisher Nuriddinovich	



XALQARO TA'LIM STANDARTLARI VA ULARNING O'ZBEKISTON TA'LIM TIZIMIDA AMALIY AHAMIYATI

Zayniddinov Suxrob Lutfulla o'g'li

Navoiy davlat universiteti Pedagogika yo'nalishi 3-bosqish talabasi

Ilmiy rahbar:

Sharipov Alisher Nuriddinovich

Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori PhD.

Pedagogika kafedrası katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada UNESCO va OECD tomonidan ishlab chiqilgan xalqaro ta'lim standartlari hamda ularning O'zbekiston pedagogika tizimiga tatbiqi chuqur tahlil qilingan. Tadqiqotda xalqaro baholash mexanizmlarining (PISA, TALIS) O'zbekiston ta'lim sifatini oshirishdagi o'rni, o'qituvchi kasbiy rivoji va o'quv dasturlarining kompetensiyaga yo'naltirilgan shaklga o'tishi yoritilgan. Maqolada ta'lim tizimining raqamli transformatsiyasi, global kompetensiyalarni shakllantirish va barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda xalqaro hamkorlikning ahamiyati asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: xalqaro ta'lim standartlari, UNESCO, OECD, PISA, TALIS, O'zbekiston ta'lim tizimi, kompetensiya, raqamli transformatsiya, barqaror rivojlanish.

Abstract: This article provides an in-depth analysis of international education standards developed by UNESCO and OECD and their application within Uzbekistan's pedagogical system. It examines the role of global assessment programs (PISA, TALIS) in improving education quality, developing teachers' professional competencies, and shifting curricula toward competence-based learning. The study also highlights the importance of digital transformation, global competencies, and international cooperation in achieving sustainable development goals.

Key words: international education standards, UNESCO, OECD, PISA, TALIS, education system of Uzbekistan, competence-based learning, digital transformation, sustainable development.

Аннотация: В статье проведён всесторонний анализ международных стандартов образования, разработанных ЮНЕСКО и ОЭСР, и их применения в педагогической системе Узбекистана. Рассмотрены роль международных оценочных программ (PISA, TALIS) в повышении качества образования, развитие профессиональных компетенций педагогов и переход учебных программ к компетентностной модели. Особое внимание уделено цифровой трансформации системы образования, формированию глобальных компетенций и значению международного сотрудничества в достижении целей устойчивого развития.

Ключевые слова: международные стандарты образования, ЮНЕСКО, ОЭСР, PISA, TALIS, система образования Узбекистана, компетенции, цифровая трансформация, устойчивое развитие.

KIRISH

XXI asrda ta'lim tizimlarining milliy chegaralari tobora aniqligini yo'qotmoqda. Globalizatsiya, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va shiddat bilan o'zgarayotgan jamiyat ehtiyojlari pedagogik faoliyatni milliy shaklda tashkil etishda katta bosim yaratmoqda. Shu bois, ko'plab davlatlar va xalqaro tashkilotlar ta'lim sifatini oshirish, uning adolatligi va barqarorligini ta'minlash maqsadida bir qator global standartlar, tavsiyalar va baholash mexanizmlarini ishlab chiqqan. UNESCO va OECD ta'lim sohasida xalqaro normativlar hamda standartlarni shakllantirish va ilgari surishga bevosita hissa qo'shayotgan asosiy institutlardan hisoblanadi [5] [7].

UNESCO ta'limga oid standartlar orqali, xususan, Inson huquqlariga oid ta'lim huquqlari (masalan, Ta'limda diskriminatsiyaga qarshi konventsiya), xalqaro ta'lim klassifikatsiyalari (masalan, ISCED — ta'limning xalqaro standart klassifikatsiyasi) hamda global sifatli o'quv jarayonlarini rag'batlantirishga qaratilgan ko'plab tavsiyalarni ilgari suradi [8].



Shuningdek, OECD tomonidan olib boriladigan xalqaro tadqiqotlar (PISA, TALIS va boshqa dasturlar) ta'lim natijalarini tizimlararo taqqoslash uchun keng imkoniyat yaratadi. Ushbu tadqiqotlar ta'lim sifati, o'qituvchilar faoliyati hamda o'quvchilarning kompetensiyalarini baholash bo'yicha muhim tahliliy ma'lumotlar manbai sifatida xizmat qiladi [6]. Masalan, O'zbekiston 2022-yilda ilk bor PISA baholashida ishtirok etib, o'quvchilarning matematika, o'qish va fan yo'nalishlaridagi natijalari xalqaro standartlarga moslashtirish zaruratini ko'rsatdi. TALIS 2024 ma'lumotlari esa o'qituvchilarning kasbiy avtonomiyasini kengaytirish, mustaqil metod tanlash va innovatsion pedagogik yondashuvlarni rivojlantirish bo'yicha yangi istiqbollarni belgilab berdi.

Xalqaro standartlar va tadqiqotlar ta'lim tizimlari uchun ikki asosiy metodik vazifani bajaradi. Birinchidan, ular milliy ta'lim tizimlarining rivojlanish imkoniyatlarini aniqlash, o'qitish va baholash sifatini oshirishga yordam beradi. Ikkinchidan, ular xalqaro tajriba va ilg'or yondashuvlar asosida milliy islohotlarni takomillashtirishga xizmat qiladi, ya'ni benchmarking mexanizmlari orqali ta'lim jarayonlarini tizimli ravishda yangilash imkonini beradi [10].

Bugungi kunda O'zbekiston pedagogika tizimi global kompetensiyalar, ilg'or o'quv metodikalari va milliy ehtiyojlar o'rtasida uyg'unlikni ta'minlash bosqichida turibdi. Ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, o'qituvchilarning kasbiy rivoji, dars jarayonini interfaol va natijaga yo'naltirilgan metodlar bilan boyitish, hamda baholash tizimini takomillashtirish bo'yicha salmoqli imkoniyatlar mavjud. Shu bilan birga, hukumat tomonidan ta'lim tizimini modernizatsiyalash, xalqaro hamkorlikni kengaytirish va global standartlarga moslashtirishga qaratilgan islohotlar izchil amalga oshirilmoqda.

Maqolaning asosiy maqsadi — UNESCO va OECD tomonidan belgilangan xalqaro ta'lim standartlari hamda indikatorlarini tahlil qilish, ularning O'zbekiston pedagogika tizimiga tatbiq darajasini o'rganish va mavjud cheklovlar hamda imkoniyatlar asosida takliflar ishlab chiqishdir.

Umuman olganda, ushbu tadqiqot xalqaro va milliy pedagogik diskurs o'rtasida ilmiy ko'prik vazifasini bajarishi, O'zbekiston ta'lim sifatini xalqaro me'yorlarga yaqinlashtirish borasida ilmiy asoslangan yo'nalishlar taklif etishi mumkin.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kirish qismida belgilangan muammolarni chuqurlashtirish maqsadida xalqaro adabiyotlar ikki asosiy yo'nalishda tahlil qilingan. Birinchi yo'nalish — ta'lim standartlari va indikatorlar orqali milliy tizimlarni benchmarking qilishga oid nazariy va amaliy manbalarga bag'ishlangan. Delors 1996-yilda UNESCO uchun tayyorlagan komissiya hisobotida ta'limning to'rt asosiy poydevori — bilishni o'rganish, amalga oshirishni o'rganish, birga yashashni o'rganish va o'zini anglash — global ta'lim siyosatining universal tamoyillari sifatida ko'rsatildi. Ushbu tamoyillar keyinchalik xalqaro va milliy standartlashtirishga metodologik asos bo'ldi [1].

OECD tomonidan amalga oshirilgan PISA va boshqa xalqaro baholashlar ta'lim natijalarini solishtirish hamda tizimlararo indikatorlarni yaratish bo'yicha amaliy mexanizmlarni taklif etadi [5]. Schleicher 2018-yilda 21-asr maktab tizimini shakllantirish jarayonida xalqaro tajribalar, kompetensiyalar va tizim islohotlari asosida tizimli yondashuvni ishlab chiqib, milliy siyosatlarning samarali elementlarini aniqlab berdi [2].

Ikkinchi yo'nalish — o'qituvchilarning kasbiy rivoji va ta'lim sifatini oshirish mexanizmlarini tahlil qiluvchi tadqiqotlar. Desimone 2009-yilda ta'lim sohasida professional rivojlanish (PD) tadqiqotlarining konseptual ramkasini taklif qilib, samarali PD dasturlarini baholash uchun asosiy komponentlarni aniqladi. U kontentga yo'naltirish, faol o'qitish shakllari, davomiylik va baholashni o'z ichiga olgan elementlarni PD samaradorligini belgilovchi muhim omillar sifatida ko'rsatgan [4].

Darling-Hammond, Hyler va Gardner 2017-yilda metodologik jihatdan mustahkam tadqiqotlar asosida samarali o'qituvchi kasbiy rivojini tashkil etish bo'yicha aniq tavsiyalarni ishlab chiqdilar. Ular PD dasturlarining tuzilishi, uzoq muddatli qo'llab-quvvatlash va sinf ichidagi amaliyotga integratsiyalash zarurligini ta'kidlaydilar [3].

Ushbu tadqiqotlar xalqaro standartlar faqat baholash vositasi emas, balki o'qituvchilarni doimiy ravishda rivojlantirish hamda tizimli o'rganish madaniyatini shakllantirish instrumenti ekanligini ko'rsatadi.

Milliy tadqiqotlar va hukumat hujjatlari O'zbekistonning xalqaro tadqiqotlarda ishtirokini kengaytirish, o'qituvchilarni qayta tayyorlash va o'quv dasturlarini xalqaro kompetensiyalar asosida yangilash choralari belgilamoqda. Amaliyotda esa bu o'zgarishlarni tatbiq etish uchun institutlararo muvofiqlashtirish hamda resurs ta'minoti muhim rol o'ynaydi.

Xalqaro adabiyotlardan kelib chiqadigan asosiy xulosalar quyidagilardan iborat. Birinchidan, xalqaro standartlar va baholashlar (UNESCO, OECD) milliy tizimlar uchun diagnostika hamda benchmarking imkonini beradi, biroq ular avtomatik tarzda milliy samaradorlikni ta'minlamaydi — kontekstga moslashtirish va institutsional qo'llab-quvvatlash zarur [9].

Ikkinchidan, o'qituvchilarning kasbiy rivoji xalqaro standartlarni tatbiq etishda markaziy omil bo'lib qoladi. Desimone 2009 va Darling-Hammond 2017 tadqiqotlari ushbu jarayonda qaysi mexanizmlar samarali ekanligini ilmiy asosda dalillaydi.



Uchinchidan, O'zbekiston uchun eng muhim vazifa — xalqaro indikatorlar talablari bilan milliy ta'lim maqsadlari o'rtasida uyg'unlikni ta'minlash, o'qituvchilarning uzluksiz o'qitish tizimini joriy etish hamda baholash va o'quv dasturlarini kompetensiya asosida qayta loyihalashdir. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda xalqaro hamkorlik va mahalliy institutsional xaritalash muhim ahamiyatga ega [11].

Adabiyotlar sharhi natijalariga ko'ra, ilmiy va amaliy manbalar O'zbekiston pedagogika tizimiga xalqaro standartlarni tatbiq etishda kontekstualizatsiyani kuchaytirish, o'qituvchilarning PD tizimini mustahkamlash va tizimli monitoringni yo'lga qo'yishni asosiy yo'nalishlar sifatida belgilaydi. Ushbu tavsiyalar maqolaning keyingi bo'limlarida mahalliy va xalqaro hujjatlar hamda empirik ma'lumotlar asosida kengaytiriladi va amaliy chora-tadbirlar shaklida taklif etiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda ma'lumotlar UNESCO va OECD tomonidan e'lon qilingan xalqaro ta'lim standartlari, hisobotlar va baholash dasturlari (PISA, TALIS) natijalari asosida to'plandi. O'zbekiston ta'lim tizimiga oid statistik va normativ hujjatlar tahlil qilindi. Ma'lumotlar qiyosiy va kontent-tahlil usullari yordamida tizimlashtirilib, xalqaro va milliy standartlarning uyg'unligi baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Zamonaviy ta'lim tizimi globallashtirish jarayonlari, raqamli transformatsiya va inson kapitaliga bo'lgan ehtiyoj kuchayishi sharoitida tubdan o'zgarishlarni boshdan kechirmoqda. Shu jarayonda UNESCO va OECD tomonidan ishlab chiqilgan xalqaro ta'lim standartlari, indikatorlari hamda baholash mexanizmlari ta'lim tizimlarini rivojlantirishda universal yo'nalish ko'rsatkichiga aylandi. Ushbu tashkilotlarning konseptual hujjatlarida ta'lim faqat bilim berish emas, balki shaxsning ijtimoiy integratsiyasi, madaniy moslashuvi, ijodiy tafakkuri va iqtisodiy faoliyatda samarali ishtirokini ta'minlaydigan kompleks jarayon sifatida talqin qilinadi [9]. O'zbekiston ham bu yo'nalishda xalqaro standartlarni milliy sharoitga moslashtirish, pedagogik tizimni modernizatsiyalash hamda raqobatbardosh inson kapitalini shakllantirish borasida izchil islohotlarni amalga oshirmoqda.

UNESCO ta'lim sohasidagi global normativ asos sifatida Inson huquqlari to'g'risidagi Umumjahon deklaratsiyasi va Ta'limda diskriminatsiyaga qarshi konvensiya tamoyillariga tayanadi. Bu hujjatlar asosida tashkilot "Inson uchun ta'lim" konsepsiyasini ilgari surib, ta'limni har bir insonning asosiy huquqi sifatida e'tirof etadi. UNESCO'ning "Education 2030" dasturi esa ta'limda inklyuzivlik, sifat va teng imkoniyatlar prinsiplari asosida barqaror rivojlanish maqsadlarini ilgari suradi [12].

O'zbekiston mustaqillikdan so'ng mazkur yo'nalishdagi xalqaro majburiyatlarni bosqichma-bosqich o'z milliy siyosatiga integratsiya qildi. Bugungi kunda mamlakatda ta'limning barcha bosqichlari UNESCO standartlariga muvofiq modernizatsiya qilinmoqda. Xususan, maktabgacha ta'limda 2030-yilgacha bo'lgan strategik rivojlanish dasturida bolalarni 100 foiz qamrab olish, pedagoglarning malakasini oshirish va o'quv dasturlarini kompetensiya asosida yangilash belgilangan. Bu borada UNESCO bilan hamkorlikda "Inclusive Early Childhood Education" loyihalari joriy etilmoqda.

Shuningdek, umumiy o'rta ta'lim tizimida o'quv dasturlari UNESCO tomonidan tavsiya etilgan kompetensiyaga yo'naltirilgan yondashuv asosida qayta ko'rib chiqilmoqda. O'quvchilarda tanqidiy fikrlash, kommunikativ savodxonlik, fuqarolik faolligi va barqaror rivojlanish qadriyatlariga sodiqlikni shakllantirish asosiy ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan. Mazkur jarayonni amalga oshirishda UNESCO tomonidan ishlab chiqilgan "Global Citizenship Education" modeli, O'zbekistonda esa "Milliy o'quv dasturi" konsepsiyasining asosiy tayanchlaridan biri bo'lib xizmat qilmoqda.

OECD tomonidan amalga oshiriladigan PISA (Programme for International Student Assessment), TALIS (Teaching and Learning International Survey) va Education Policy Outlook kabi dasturlar xalqaro miqyosda ta'lim sifatini baholashning eng ishonchli mexanizmlaridan hisoblanadi. Bu tadqiqotlar nafaqat o'quvchilarning bilim darajasini, balki ularning amaliy kompetensiyalarini, muammolarni hal qilish, mantiqiy fikrlash va kreativ yondashuv qobiliyatlarini o'lchaydi [11].

O'zbekiston 2022-yilda birinchi marta PISA tadqiqotida ishtirok etib, ta'lim tizimining kuchli va rivojlantirish zarur bo'lgan jihatlari aniqlash imkoniyatiga ega bo'ldi. Bu natijalar milliy siyosat uchun muhim tahliliy asos yaratdi. Eng muhimi, mamlakat rahbariyati xalqaro baholash natijalarini konstruktiv tahlil qilib, o'quv dasturlarini takomillashtirish, baholash tizimini yangilash hamda o'qituvchilarning kasbiy salohiyatini oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni belgilab oldi.

TALIS dasturida esa O'zbekiston o'qituvchilarining kasbiy faoliyati, metodik yondashuvlari va o'z-o'zini rivojlantirish madaniyati xalqaro ko'rsatkichlar bilan solishtirildi. Tadqiqot natijalari O'zbekiston pedagoglari o'z faoliyatida o'quvchilarning individual xususiyatlariga e'tibor qaratish, o'quv jarayonida texnologik vositalardan foydalanish va innovatsion metodlarni joriy etish borasida sezilarli ijobiy tendensiyalarga ega ekanligini ko'rsatdi.



Shu bilan birga, xalqaro standartlarga asoslangan o'qituvchi malaka oshirish tizimini kuchaytirish orqali bu natijalarni yanada mustahkamlash imkoniyati mavjud [5].

O'zbekiston ta'lim tizimining hozirgi bosqichida asosiy e'tibor ta'lim sifatini baholashning xalqaro standartlariga mos milliy indikatorlarni yaratishga qaratilgan. Hozirda "Milliy baholash markazi" OECD ekspertlari bilan hamkorlikda o'quvchilarning funksional savodxonligini aniqlovchi test tizimini joriy etmoqda. Bu, o'z navbatida, xalqaro baholash tizimlariga to'liq integratsiya uchun mustahkam poydevor yaratadi.

Pedagogik kadrlar tayyorlashda ham xalqaro hamkorlik yo'nalishlari kengaymoqda. Oliy ta'lim muassasalari UNESCO kafedralari bilan hamkorlikda yangi o'quv dasturlari ishlab chiqmoqda. Misol uchun, Toshkent davlat pedagogika universiteti, TDIU hamda Samarqand davlat universitetlarida UNESCO tomonidan tavsiya etilgan "Ta'limni rivojlantirishda barqarorlik" moduli joriy qilinmoqda. Bu modul o'qituvchilarni zamonaviy global kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltiradi.

Ta'lim sohasidagi raqamli transformatsiya ham xalqaro standartlarga integratsiyani jadallashtirmoqda. "Digital Education Uzbekistan-2030" strategiyasi doirasida raqamli o'quv resurslari, masofaviy ta'lim platformalari va sun'iy intellekt asosidagi o'qitish texnologiyalari joriy etilmoqda. UNESCO va OECD ekspertlari bu jarayonni yuqori baholab, O'zbekistonning mintaqada ilg'or tajribaga ega bo'lish istiqbolini e'tirof etmoqda [8].

OECD va UNESCO tajribasi shuni ko'rsatadiki, ta'lim sifatini ta'minlashda samarali monitoring tizimi, ochiq ma'lumotlar bazasi va mustaqil baholash institutlari muhim o'rin tutadi. O'zbekiston bu borada "Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi" faoliyatini takomillashtirib, baholashni faqat nazorat vositasi sifatida emas, balki rivojlanish strategiyasi sifatida qo'llamoqda. Natijadorlikka yo'naltirilgan baholash tamoyillari o'quvchi va o'qituvchi faoliyatini rag'batlantirish mexanizmlari bilan uyg'unlashmoqda.

Shuningdek, OECDning "Education Policy Outlook" hisobotlari O'zbekiston uchun xalqaro ekspertiza manbai bo'lib xizmat qilmoqda. Mazkur hisobotlarda ta'lim tizimini rivojlantirishda maqsadli indikatorlar, siyosiy barqarorlik, moliyaviy mexanizmlar va inson kapitali sifatining uzviy bog'liqligi ta'kidlanadi. O'zbekiston bu yondashuvni o'z milliy strategiyalariga tatbiq etib, davlat budjeti, grantlar va xususiy sektor hamkorligini uyg'unlashtirish orqali barqaror moliyalashtirish modelini shakllantirmoqda [11].

UNESCO va OECD tavsiyalariga muvofiq, O'zbekiston ta'lim tizimi an'anaviy bilimga asoslangan yondashuvdan kompetensiyaga yo'naltirilgan tizimga o'tmoqda. Bu o'zgarishning markazida o'quvchilarning mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarni hal qilish, kommunikativ ko'nikmalar va raqamli savodxonlikni shakllantirish turgan. "Milliy o'quv dasturi" bu jihatdan global kompetensiyalar konsepsiyasiga mos ravishda ishlab chiqilgan bo'lib, unda o'quv natijalari faqat akademik bilim bilan cheklanmay, amaliy hayotiy vazifalarni bajarish qobiliyatiga qaratilgan [12].

O'qituvchilarning malaka oshirish tizimida ham sezilarli yangilanishlar amalga oshirilmoqda. OECD TALIS tahlillari asosida O'zbekistonda pedagoglarning kasbiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlovchi "Ustoz" dasturi ishlab chiqildi. Bu dastur o'qituvchilarga ilg'or metodikani o'zlashtirish, zamonaviy o'quv texnologiyalaridan foydalanish va xalqaro treninglarda ishtirok etish imkonini beradi. Natijada, o'qituvchi kasbining ijtimoiy maqomi va nufuzi yuksalmoqda [5].

Xalqaro tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, O'zbekiston ta'lim tizimi 2030-yilgacha bo'lgan davrda mintaqadagi ilg'or pedagogik modelga aylanish salohiyatiga ega [10]. UNESCO ekspertlarining baholashicha, O'zbekistonning barqaror islohot siyosati, yoshlar sonining ko'pligi va raqamli infratuzilmaning kengayishi bu jarayonga qulay sharoit yaratadi.

Prognozlarga ko'ra, kelgusi yillarda ta'lim tizimida quyidagi ijobiy tendensiyalar kuchayadi:

- PISA va TALIS baholashlarida O'zbekistonning natijalari izchil yaxshilanib, OECD o'rtacha ko'rsatkichlariga yaqinlashadi;
- O'qituvchilarning kasbiy rivojlanish tizimi xalqaro sifat indikatorlariga to'liq moslashtiriladi;
- Ta'limda raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt va katta ma'lumotlar tahlilini keng qo'llash natijasida o'quv jarayonining samaradorligi oshadi;
- UNESCO bilan hamkorlikda barqaror rivojlanish va global fuqarolik ta'limi modullari barcha bosqichlarda tatbiq etiladi;
- Xususiy sektor, xalqaro tashkilotlar va davlat muassasalari o'rtasidagi hamkorlik ta'limni moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiyalaydi.

Umuman olganda, O'zbekiston ta'lim tizimining xalqaro standartlarga integratsiyalashuvi mamlakatning uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasining ajralmas qismi hisoblanadi. UNESCO va OECD bilan hamkorlikdagi islohotlar natijasida pedagogik tizimda sifat, shaffoflik va natijadorlik tamoyillari mustahkamlanmoqda. Ta'limning barcha bosqichlarida global kompetensiyalarni rivojlantirish, o'qituvchi kasbini qadrlash va o'quv jarayonini zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish O'zbekistonning xalqaro ta'lim maydonida nufuzli o'rin egallashiga xizmat qiladi.



Shu tariqa, xalqaro ta'lim standartlarini milliy sharoitga mos tatbiq etish, milliy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirish va pedagogik jarayonni innovatsion asosda tashkil etish orqali O'zbekiston 2030-yilga kelib ta'lim sifatining yangi, xalqaro darajadagi bosqichiga chiqadi. Bu yutuqlar nafaqat ta'lim sohasining, balki mamlakatning intellektual, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotining ham muhim omiliga aylanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston ta'lim tizimi UNESCO va OECD tomonidan ishlab chiqilgan xalqaro standartlarga izchil moslashib borayotgan, barqaror rivojlanishga yo'naltirilgan model sifatida shakllanmoqda. Ta'lim tizimining har bir bosqichi — maktabgacha ta'limdan oliy ta'limgacha — global kompetensiyalar, inklyuzivlik, raqamli transformatsiya va inson kapitalini rivojlantirish tamoyillari asosida qayta tashkil etilmoqda. Bunda ta'lim siyosatining markazida inson qadri, adolatli imkoniyatlar va sifatli bilim olish huquqi turibdi. Shu bilan birga, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik, ilg'or tajriba almashuvi hamda milliy qadriyatlarni saqlagan holda global standartlarga yaqinlashish mamlakat ta'lim siyosatining eng muhim yutug'idir.

Ta'lim sifatini yanada oshirish uchun, eng avvalo, o'qituvchi kasbiy rivojlanish tizimini uzluksiz qo'llab-quvvatlash, ularning malakasini xalqaro mezonlar asosida baholash va zamonaviy metodikani joriy etish muhim ahamiyatga ega. Ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt va katta ma'lumotlar tahlilini qo'llash orqali o'quv dasturlarining samaradorligi oshiriladi, o'quvchilarning mustaqil fikrlash va ijodkorlik salohiyati rivojlanadi. Shu bilan birga, ta'limni moliyalashtirishda davlat, xususiy sektor va xalqaro tashkilotlar o'rtasidagi hamkorlik mexanizmlarini yanada takomillashtirish natijadorlikni kafolatlaydi.

Kelajak istiqbolida O'zbekiston xalqaro baholash tizimlarida yuqori natijalarga erishish, o'qituvchi kasbining nufuzini mustahkamlash, hamda ta'limni milliy qadriyatlar va global yondashuvlar uyg'unligida rivojlantirish orqali mintaqada ilg'or pedagogik modelga aylanish salohiyatiga ega. UNESCO va OECD bilan davom etayotgan hamkorlik natijasida ta'lim sifatini nazorat qilish, innovatsion o'quv muhitini yaratish va shaffof baholash tizimini shakllantirish bo'yicha O'zbekistonning yondashuvi barqarorlik, izchillik va ijobiy natijaga yo'naltirilganligi bilan ajralib turadi. Shu jihatdan, mamlakat ta'lim sohasining istiqboli xalqaro standartlar bilan uyg'unlashgan, milliy g'urur va zamonaviy innovatsiyalarni o'zida mujassam etgan yangi bosqichga kirib bormoqda.

O'zbekiston ta'lim tizimi UNESCO va OECD tomonidan ishlab chiqilgan xalqaro standartlar bilan hamkorlik asosida tashkil etilsa:

Birinchidan — ta'lim sifati va raqobatbardoshligi oshadi. Xalqaro standartlarga asoslangan o'quv dasturlari:

- o'quvchilarda tanqidiy fikrlash, ijodkorlik va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi;
- ta'lim jarayonini faqat bilim berishga emas, balki kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltiradi.

Natijada O'zbekiston ta'lim tizimi xalqaro reytinglarda yuqoriga ko'tariladi.

Ikkinchidan — diplom va malakalar xalqaro darajada tan olinadi. UNESCO va OECD standartlari:

— o'qituvchilar, o'quvchilar va bitiruvchilarning bilim darajasini xalqaro mezonlar asosida baholash imkonini beradi;

— o'zbekistonlik bitiruvchilarning xorijiy oliy o'quv yurtlariga kirishi va mehnat bozorida raqobatga kirishish imkonini kengaytiradi;

— "xalqaro mehnat migratsiyasi"da ijobiy imidjni shakllantiradi.

Uchinchidan — ta'lim tizimi boshqaruvi va moliyalashtirish tizimi takomillashadi. OECD standartlari (ayniqsa PISA, TALIS va Education2030 yo'nalishlari):

- ta'lim sifatini o'lchashning aniq indikatorlarini joriy etadi;
- resurslardan oqilona foydalanish va natijadorlikka asoslangan moliyalashtirish tizimini yaratadi.

Natijada ta'lim siyosati shaffof va samarali bo'ladi.

To'rtinchidan — innovatsion va inklyuziv ta'lim muhiti shakllantiriladi. UNESCO va OECD yondashuvlari:

— har bir bolaga, shu jumladan nogironligi bo'lgan, ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarga sifatli ta'lim olish imkonini beradi;

— raqamli texnologiyalar, STEAM-ta'lim, masofaviy o'qitish tizimlarini joriy etishni jadallashtiradi.

Bu esa barqaror rivojlanish maqsadlariga ("Sifatli ta'lim") erishishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. J. Delors. Learning: The Treasure Within. Report to UNESCO of the International Commission on Education for the Twenty-first Century. – Paris: UNESCO Publishing, 1996. – 245 p.
2. A. Schleicher. World Class: How to Build a 21st-Century School System. – Paris: OECD Publishing, 2018. – 340 p.
3. L. Darling-Hammond, M.E. Hyler, M. Gardner. Effective Teacher Professional Development. – Palo Alto: Learning Policy Institute, 2017. – 92 p.
4. L.M. Desimone. Improving Impact Studies of Teachers' Professional Development: Toward Better Conceptualizations and Measures. – Washington D.C.: Review of Educational Research, 2009. – 181 p.
5. OECD. PISA 2022 Results (Volume I): The State of Learning Worldwide. – Paris: OECD Publishing, 2023. – 410 p.



6. OECD. TALIS 2018 Results (Volume II): Teachers and School Leaders as Valued Professionals. – Paris: OECD Publishing, 2020. – 320 p.
7. UNESCO. Education for Sustainable Development Goals: Learning Objectives. – Paris: UNESCO Publishing, 2017. – 62 p.
8. UNESCO. Global Education Monitoring Report 2024: Inclusion and Education. – Paris: UNESCO Publishing, 2024. – 395 p.
9. M. Fullan. The New Meaning of Educational Change. – New York: Teachers College Press, 2016. – 367 p.
10. J.W. Meyer, F.O. Ramirez, Y.N. Soysal. World Expansion of Mass Education, 1870–1980. – Stanford: Stanford University Press, 1992. – 215 p.
11. OECD. Education Policy Outlook 2024: Shaping Responsive and Resilient Education Systems. – Paris: OECD Publishing, 2024. – 286 p.
12. UNESCO Institute for Statistics. International Standard Classification of Education (ISCED 2011). – Montreal: UIS, 2012. – 85 p.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

8-Maxsus son. Bakalavr talabalarining maqolalari to'plami

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
